

**MUSTAQILLIK DAVRI GAZETA VA JURNALLARI NOMLARINING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI.**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НАЗВАНИЙ ГАЗЕТ И
ЖУРНАЛОВ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ**

**LINGUOCULTURAL STUDY OF NEWSPAPER AND MAGAZINE NAMES IN THE
PERIOD OF INDEPENDENCE**

Jo'rayeva Guljahon Bahodirovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yònalishi 2 kurs magistranti

guljahonjorayeva492@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik davrida O'zbekistonda nashr etilgan gazeta va jurnallar nomlarining lingvokulturologik tahlili berilgan bo'lib, tadqiqot materiali sifatida 1991-yildan boshlab faoliyat yuritayotgan gazeta va jurnallar nomlari tanlangan. Maqolada nomlash jarayonidagi lingvistik va madaniy komponentlar, shu jumladan so'z tanlovi, metafora, simbolika, morfemik tuzilma va madaniy kontekst o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari matbuot nomlari orqali til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Lingvokulturologiya, til, madaniyat, milliy identifikatsiya, matbuot, modernizatsiya.*

Аннотация: *В данной статье представлен лингвокультурологический анализ названий газет и журналов, издававшихся в Узбекистане в период независимости. В качестве материала исследования выбраны названия газет и журналов, действующих с 1991 года. В статье рассматриваются лингвистические и культурные компоненты процесса именованья, включая выбор слов, метафоры, символику, морфемную структуру и культурный контекст. Кроме того, результаты исследования позволяют определить взаимосвязь языка, культуры и общества через названия печатных изданий.*

Ключевые слова: *Лингвокультурология, язык, культура, национальная идентичность, печатные издания, модернизация.*

Abstract: *This article presents a linguocultural analysis of newspaper and magazine names published in Uzbekistan during the period of independence. The research material includes names of newspapers and magazines that have been active since 1991. The article examines the linguistic and cultural components of the naming process, including word choice, metaphor, symbolism, morphemic structure, and cultural context. Furthermore, the study results allow for identifying the interconnectedness of language, culture, and society through the names of printed media.*

Keywords: *Linguoculturology, language, culture, national identity, printed media, modernization.*

KIRISH

XX asr oxiri — O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligi e‘lon qilinishi (1991 yil 1 sentabr) bilan vatanimiz tarixida va ijtimoiy sohaning bir nechta sohlarida o‘zgarishlar amalga oshirildi, shu jumladan Turkiston o‘lkasida yashab, matbuot erkinligini talab qilgan o‘lka jadidlari orzu qilgan matbuot maydonida ham keskin yangilanishlar ro‘y berdi. Sobiq ittifoq davrida ham bir qancha nashrlar mavjud bo‘lgan, lekin ushbu nashrlarning ko‘pchiligi ustidan yuqori darajadagi senzura va siyosiy-mafkura hukmron edi.

Davlat mustaqilligi e‘lon qilingach, gazeta va jurnallarini “qayta nomlash”da yoki yangi gazeta va jurnallar yaratish jarayonida til, madaniyat, milliy qadriyatlarga asoslangan yangicha nomlanish imkoni yaratildi. va kommunikatsiya nuqtai nazaridan yangi imkoniyatlar ochdi. O‘zbek xalqi dunyo xalqlari orasida eng yuksak etnosotsial jamoa sifatida, ya‘ni o‘zbek millatiga taalluqli, madaniyat va boy tarixini o‘zida aks ettiruvchi, erkin matbuotga ham asos solindi. Shu sababli, ushbu maqolani yozish jarayonida ma‘lumotlar sifatida matbuot nomlari, nashriy muhit, nomlash strategiyalari va lingvistik-madaniy aspektlardan foydalandim.

Adabiyotlar tahlili. Umumiy olganda lingvokulturologiya — bu til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni tadqiq qiluvchi linivistikaga oid fandır. Sodda qilib aytganda, u tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki fan, madaniyat, tarix va jamiyatning bir parchasi sifatida o‘rganadi. Gazeta va jurnallar nomlari esa lingvistik ibora-belgi sifatida jamiyatdagi madaniy, siyosiy va ijtimoiy identifikatsiyani aks ettiradi. F. de Sossyur ilgari surgan umumiy lingvokulturologiya loyihasi zamonaviy tilshunoslikda qisman ifodasini topgan bo‘lsa-da, lingvokulturologiya nuqtai nazaridan “nomlash” milliy o‘zlikni angalatishni boshladi.

XX asr oxiriga kelib tilni belgilar tizimi tarzida tadqiq etish masalasi tadqiqotchilar oldidagi asosiy vazifa bo‘ldi. Beruniy Alimov nomlash jarayonini talqin qilar ekan til-madaniy kontekstdagi ma‘nolar zanjiri bilan chambarchas bog‘liqligi: so‘z tanlovi, metafora, semantik o‘zgarishlarni o‘z ichiga olishini ta‘kidlagan. Rasulev esa matbuot tarixi va ilmiy tadqiqot metodologiyasini o‘rganish bo‘yicha ishlarida sovet va mustaqillik davri gazetalari nomlarini solishtirish orqali nomlash tendensiyalarini ko‘rsatib bergan Albatta bu ikkala tadqiqotchi tominidan berilgan fiklar to‘g‘ri, chunki erkinlik, yuksalish va taraqqiyotni ifodalovchi so‘zlar, milliy ramzlar va qadriyatlar bilan bog‘liq atamalar gazeta va jurnallarning ommalashishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa bu o‘tish davrida juda myhim kategoriya edi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun oliy o‘quv yurtlari hamda jurnalistika tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasidagi aloqalar samaradorligini oshirish, salohiyatli jurnalistlar, professorlarni

birlashtirish, moddiy-texnika bazasini hamkorlikda yaratish va undan unumli foydalanish zarur bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda ham o'zbek jurnalistlari oldida lingvokulturologiya jihatdan ham madaniy, ham umummilliy borliqni qamrab olgan mukammal metodologiyani ta'minlovchi o'zbek xalqi va uning qadriyatlariga mos, gazeta va jurnallari, yaratishdek dolzarb vazifa turibdi. Shu sababli ham nomlar mustaqillikka erishgan yillarimizda ko'pincha quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak bo'lgan:

birinchidan milliylik va o'zlikni ifodalash – masalan, "Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi" kabi nomlar milliy qadriyat va xalq orasida milliy identifikatsiyani aks ettirgan;

ikkinchidan davr ruhini ifodalash – mustaqillik va erkinlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi nomlar shu davr uchun juda muhim kategoriya hisoblangan: bunga misol qilib "Mustaqillik", "Erkin fikr" kabi gazetalarni misol qilishimiz mumkin;

uchinchidan axborot yoki mavzuga yo'naltirish-bunda xalqimiz orasida yangi islohotlar, fan sohalarida erishilgan yangi yuqtuqlarni xalq ommasiga yetqizish asosiy masala hisoblangan "Ta'lim va hayot", "Madaniyat va san'at" gazetalari bunda yordam bergan;

to'rtinchidan tarixiy va madaniy merosga ishora- bunda "Sharq yulduzi", "Oltin meros" kabi nomlar tarixiy va madaniy qadriyatlarni eslatadi.

Gazeta-jurnal nomlarini lingvokulturologiya jihatdan tahlil qilish o'z navbatida: ijtimoiy mavqe, auditoriya bilan muloqot, identifikatsiya strategiyasini bildiradi. Shuning uchun mustaqillik davridagi nashr nomlarini tahlil qilish lingvokulturologik jihatdan qiziqarli. Shu sababli ham mustaqillik yillaridagi nomlar ko'pincha metaforik vositalar: erkinlik, yuksalish va taraqqiyotni ifodalovchi so'zlar; simvolik vositalar: milliy ramzlar va qadriyatlar bilan bog'liq atamalar. vositalardan foydalanadi;; sodda va tushunarli leksika: o'quvchiga tez yetib boradigan, aniq va ravshan so'zlar kabi lingvistik vositalardan foydalanilgan.

Lingvokulturologik tahlilning natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqillik davrida gazeta va jurnal nomlarida quyidagi tendensiyalar kuzatiladi:

- 1) Milliy o'zlik va tarixiy merosga urg'u berish
- 2) Erkin fikr va demokratiya g'oyalarini aks ettirish
- 3) Tarbiya va ma'rifatga yo'naltirilgan nashrlar sonining ortishi
- 4) Xorijiy ta'sirlardan tanlab foydalanish, lekin milliylikni saqlash

Shuningdek, nomlar orqali ijtimoiy va siyosiy muhit ham ko'rinadi. Masalan, "Mustaqil fikr" nomi yangi siyosiy erkinlikni, "Yangi avlod" esa kelajakni yaratish va yoshlarni tarbiyalash g'oyasini aks ettiradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mustaqillik davri gazeta va jurnallari nomlari lingvokulturologik tahlil uchun eng kerakli tizim hisoblanadi. Ular nafaqat xalq ommasini yangi ma'lumot bilan ta'minlaydi, balki milliy ong, tarixiy va madaniy qadriyatlarni ham shakllantiradi va kelajak avlodga me'ros qoldirishda asosiy atraktor

hisoblanadi. Shu bilan birga, nomlar orqali biz davr ruhi va o'sha davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham tushunish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Лингвострановедческая теория слова». Костомаров В.Г. В соавтор. с Е.М.Верецагиным. М., 1980.
2. Buyanova, LY. (2017). Phraseology as a Cultural Cognition Code and Spiritual Heritage of Our Predecessors. RUDN Journal of Russian and Foreign Languages Research and Teaching, 15 (3), 285-298. (In Russ.)
3. Rasulev A. Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti. Namangan: NamDU nashriyoti, 2024. 67-s. admin.namdu.uz
4. "O'zbekiston mustaqillikka erishgach..." — Kun UZ maqolasi. Kun.uz
5. O'zbekistonda OAV tarixi — "Gazetchilikda yaponlardan oldindamiz..." maqolasi. Хабар
6. Matbuot nomlari va til-madaniyat munosabati haqida: Ilmiy axborot jurnali, 2025/7. BuxDu